



THE IMPORTANCE OF SYNONYMS IN THE LANGUAGE OF THE UZBEK PEOPLE ON THE TERRITORY OF UZBEKISTAN AND THE UZBEK LANGUAGE OF NORTHERN AFGHANISTAN

Cho'pon Zabihullah Muhammad navob o'g'li¹

¹Master of Philology, SamSU, zabihullahcholpan2019@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4692493>

ARTICLE INFO

Received: 9th April 2021
Accepted: 12th April 2021
Online: 15th April 2021

KEY WORDS

Decency, morality, good manners, honesty, humanity, virtue, humility, aesthetic culture, fine arts, beauty, perfect man.

ABSTRACT

Navoi's works reflect aesthetic ideas and the idea of an ideal man. They say that his works are based on good. Thus, we see the unique role of Navoi's works in the education of young people. In his works there are many ideas about a person, signs of humanity, "human being", that is, an ideal person. Navoi glorifies a person. He repeatedly emphasizes that his heart is sacred. At the same time, he stresses the importance of leaving a good name and brightening your life with good deeds. Perhaps for this reason, it is noted that over the years and centuries, interest in the work of our ancestors has grown.

O'ZBEKISTON HUDUDIGAI O'ZBEK XALQI VA SHIMOLIY AFG'ONISTON O'ZBEKLARI TILIDA SINONIMLARNING AHAMIYATI VA ULARNING BO'YOQDORLIGI

Cho'pon Zabihullah Muhammad navob o'g'li¹

¹SamDU filologiya fakulteti magistranti zabihullahcholpan2019@gmail.com

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 9-aprel 2021
Ma'qullandi: 12-aprel 2021
Chop etildi: 15-aprel 2021

KALIT SO'ZLAR

Shimoliy Afg'oniston, sinonimlar, ijobiy va salbiylik xususiyatlari, leksik, so'z, ma'nodoshlik, sinonimlar lug'ati, izohli lug'at, o'zbek kabi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston xalqi tilida leksik sinonimlarining va Shimoliy Afg'oniston hududidagi o'zbeklar tilidagi leksik sinonimlarning ahamiyati va xususiyatlari yoritilib beriladi.

ЗНАЧЕНИЕ СИНОНИМОВ В ЯЗЫКЕ УЗБЕКСКОГО НАРОДА НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА И УЗБЕКОВ СЕВЕРНОГО АФГАНИСТАНА



ИСТОРИЯ СТАТЬИ

Принято: 9 апреля 2021 г.
Утверждено: 12 апреля 2021 г.
Опубликовано: 15 апреля 2021 г.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Северный Афганистан, синонимы, положительные и отрицательные черты, лексика, слово, семантика, словарь синонимов, аннотированный словарь, узбекский язык

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются значение и особенности лексических синонимов в языке народа Узбекистана и лексических синонимов в узбекском языке в северном Афганистане.

Kirish. Turlicha tovushlardan tuzilgan, ammo ma'nolari umumiy yoki bir-biriga yaqin so'zlar sinonimlar yoki ma'nodoshlar deb ataladi. Masalan, sabr, toqat, chidam, to'zim so'zlarining umumiy ma'nosi „sabr qilish“, „chidash“ dir. Ular shu ma'nolari bilan bir-biriga yaqin. Shuningdek, tur, nav, xil, jins so'zlari; Gulshan, chamanzor, gulzor so'zlari; qayg'u alam, dard, kulfat, tashvish, zaxmat so'zlari ham ba'zi ma'no ottenkalari bo'lishidan qat'i nazar, umumiy bir ma'noga egadir. Shuning uchun ular sinonimlarning belgisi turi (gruppasi)ni tashkil etadi. (1.128-b)

Ma'nodosh so'zlar Leksikologiya bo'limining asosi tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u o'zbek tilida juda keng tarqalgan hisoblanadi.

Sinonimlarning quyidagi ko'rinishlarini uchratishimiz mumkin:

1. *Leksik sinonimiya:* do'st, o'rtoq, jo'ra, hamdam, rafiq...

2. *Frazeologik sinonimiya:* Og'zi qulog'ida—do'ppisini osmonga otdi...

3. *Affiksial sinonimiya:* ba-, -mand, -chi, -shunos...

4. *Sintaksis sinonimiya:* U telefonda gaplashadi—U telefon orqali gaplashadi...

Yuqorida keltirgan misollarni ko'plab davom ettirishimiz mumkin. Biz kundalik hayotimizda ko'plab ma'nodosh so'zlardan foydalanamiz, ammo e'tibor qilmasligimiz mumkin. Hazrat Mir Alisher Navoiy o'zbek tili va tojik tilini bir-biriga qiyoslaganda aynan o'zbek tilining ma'nodoshlarga boyligini va tojik tilidan ustunliklarini aytib o'tadi.

Asosiy qism

Ma'nodosh so'zlar ikki so'zdan tortib, yeti-sakkiz hatto undan ham ko'p so'zlar doirasida kuzatilishi bizga ma'lum. Quyidagi jadvalda ularga to'liqroq izoh berishga harakat qilamiz.

Ikki so'zdan iborat ma'nodoshlik

I-Bosh sinonim	Izohi	Afg'oniston o'zbeklari tiliga doir misollar
----------------	-------	---



Adolat	Qonun-qoida va umum ishidagi xatti-harakatga nisbatan qo'llanadi.	“Oga” bo'lgan ham haqiqat, ham adolat kuychisi, Qo'rqmadi xavf u xatardan borur o'tkazdi yosh.[1.191-b] U o'zini “kambag'al xalqni boyitgan”, “oz sonli xalqni kupaytirgan”, “ adolatli hukimron” sifatida tasvirlaydi.[2.32-b]
II-sinonim		
Odillik	Oddiy munosabatlardagi xolis va odilona xatti-harakat	Ambudismaning tarixi ildizlaridan biri Qur'oni karim va islom mafkurasining bir qismi sifatida odillik tamoyilidan kelib chiqadi.[9.1-b]

Uch so'zdan iborat ma'nodoshlik

I-bosh sinonim	Izohi	
Musobaqa	Bosh so'z, adabiy uslubga tegishli	Yugondo krekit jamoasi so'ngi musobaqalarida orjantoy krekit jamoasini mag'lubiyatga uchratib.[5.1-b]
II-sinonim		
Bellashuv	Ko'proq oddiy so'zlashuvga xos	Afg'oniston milliy krekit jamoasi Orjantoynda bo'lib o'tgan jahon krekit birinchiligi saralashuv bellashuv larning uchinchi davr.[5.1-b]
III-sinonim		
Kurash	Ma'lum so'zlar bilan birga qo'llangandagina shu ma'noni aniq ifodalaydi.	Yovlaring ona Vatan ko'rkamligini istamas, Arslon yanglig' kurash , dushmanlaring noshod qil.[4.44-b]

To'rt so'zdan iborat ma'nodoshlik

I bosh sinonim	Izohi	
Nur	Yorug'lik manbaidan chiquvchi yorug' chiziq. Shu'la so'ziga nisbatan kengroq	Hali to'xta, nurli quyosh osmonga sori ko'tarsin, O'z porloq bayrog'ini.[3.71-b]
II sinonim		
Shu'la	Badiiy uslubga xos	Muhabbat shu'lasidan bo'lmog'on yuz dog' dunyo ting, Qani bir sham mazorind, qani bir lola bu menda?[6.1-b]
III Sinonim		



Yog'du	Badiiy uslubga xos	Oy jamoling <i>yog'dusidan</i> ko'zda nurim qolmadi, Bir quchog' ochib azizim, bag'ringa bosilmading.[4.7-b]
IV Sinonim		
Ziyo	Eskirgan, kitobiy	<i>Ziyoli</i> kishilarga kerakli masala shudir kim qara xalq ichida o'z yorug' uylovlari bilan ochiq'lama tashlasalar.[3.3-b]

Besh so'zdan iborat ma'nodoshlik

I bosh sinonim	Izohi	
Osmon	Bosh so'z bo'lib keng qo'llanadi.	Hali to'xta, nurli quyosh <i>osmonga</i> sori ko'tarsin, O'z porloq bayrog'ini.[3.71-b]
II sinonim		
Ko'k	So'zlashuv tilida juda kam qo'llanadi	<i>Ko'k</i> yuzini bosmoq uchun og'ir qaro bulutlar, Guldirashib hayqirishib chopadi.[3.71-b]
III sinonim		
Samo	Kitobiy, poetik uslubga xos	O'zgalarga ilm orqali serli <i>samoga</i> ochdi yo'l, Bizga ham azm-u shitob aylash kerak bo'ldi bugun.[3.70-b]
IV sinonim		
Falak	So'zlashuv tilida juda kam qo'llanadi	Ey <i>falak</i> zulming qo'lidan doimo qon yig'ladim, Sen butunni aylading jabring bilan sarson, ket![4.5-b]
V sinonim		
Gardun	Eskirgan, kitobiy	Charx <i>gardun</i> sulfa parvar, ko'p yomon-u fitnagar, Chun saodat bodasidan bermading bir jom, ket![4.5-b]

Olti so'zdan iborat ma'nodoshlik

I bosh sinonim	Izohi	
Og'ir	Katta og'irlikka ega, yengilning aksi	Ko'k yuzini bosmoq uchun <i>og'ir</i> qaro bulutlar, Guldirashib hayqirishib chopadi.[3.71-b]
II sinonim		
Vazmin	Og'ir nisbatan kam so'ziga qo'llanadi	Adab belgilaridan biri vazminlik der. (Sheva)
III sinonim		
Zildek	Belgi darajasi kuchli	Zildek yo'l yer ustiga yopirilib olgan.[7.361-b]
IV sinonim		



Zil	Belgi darajasi kuchli	Qishning uzun kechlari boshga tushgan og'ir zil yukday go'yo.[7. 1-b]
V sinonim		
Zil-zambil	Belgi darajasi juda kuchli	Bunga o'zingiz biron narsa yozing.
VI		
Zalvorli	Asosan asbob, qurolga nisbatan qo'llanadi	Shunchalar og'irki, uning zalvorli kishi o'y-xayolni bukib tashlaydi.[7.1-b]

Yetti so'zdan iborat ma'nodoshlik

I bosh sinonim	Izohi	
Fahm	Kishining to'g'ri mulohaza yuritishi, tushuna olish qobiliyati, aql so'ziga yaqinroq	Hayotni birgina oq-u qora bo'yoqlarda ko'rayotganlar, o'ta tuban o'ylayotganlar edi Navoiy ko'zda tutgan o'sha " bu yot el"! bu yerda " aql- fahm-u donishdan" demoqda Navoiy.[8.1-b]
II sinonim		
Farosat	So'zlashuv uslubida ham erkin qo'llaniladi	Hayot yo'li shunday qiyin sinovli yo'l derkim unda har qadamda bir to'siq bor va bu to'siqlardan o'tish uchun o'ta ko'p <i>farosat</i> , tadbir hamda toqat kerak bo'ladi.[3.23-b]
III sinonim		
Did	Biror narsadagi go'zallikni, nafislikni, uning yaxshi-yomon tomonini ajrata olish qobiliyati	Bilim va ma'rifat inson didini yuksaltiradi.
IV sinonim		
Tamiz	Hozirgi adabiy tilda juda siyrak qo'llanadi, asosan salbiy tushuncha anglatishda ishlatiladi	Mayiz bilan <i>tamiz</i> birdur o'lkada, Ish bilmaslar necha kun davron surur.[4.12-b]
V sinonim		
Uquv	Bu so'z asosan qobiliyat va anglab olish ma'nolarida ishlatiladi	Uquvi bo'lmagan odam har doim gap eshitar. (Sheva)
VI sinonim		
Zehn	Bevosita aqliy jarayon bilan bog'liq tushuncha	Zahir bog'cha bolalari ichida zehni o'tkir boladir. (Sheva)
VII sinonim		



Idrok	Kitobiy uslubga xos	Sog'ligi bor odamda aql va idrok ham bor bo'lib barcha sohalarda o'z ishlariga yutuq va omad qozonib[3.13-b]
--------------	---------------------	---

Biz bunday turli so'zlarda kuzatiladigan misollarni hali juda ko'p davom ettirishimiz mumkin.

Sinonim so'zlar bir umumiy ma'no asosida ma'nodoshlik qatorini hosil qiladilar, biroq ular bir-biridan turli ma'no nozikliklari—bo'yoqlari bilan farqlanib

turadilar. Bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'z esa neytral so'z—dominant hisoblanadi vas hu qatorning asoschisi sifatida qator boshida turadi. (2.50-b)

Ma'no nozikliklariga ko'ra sinonimlar ikki xil bo'yoqli hisoblanadi va ular ijobiy yoki salbiy xususiyatlariga ko'ra farqlanadi.

Ijobiy	Dominant	Salbiy
Chehra, oraz, ruxsor, jamol	Yuz	Bet, aft, bashara, turq, nusxa
So'zladi, nutq irod etdi	Gapirdi	Ming'irladi, g'o'ng'illadi, to'ng'illadi
Tabassum qildi, jilmaydi,	Kuldi	Irshaydi, tirjaydi, xoxoladi

Yuqoridagi jadvaldagi ijobiy va salbiy bo'yoqqa ega bo'lgan ma'nodosh so'zlarimiz quyidagi gap shaklidagi misollarda yaqqol o'z ifodasini topadi.

Bu so'zlarni eshitib Mehribonning **yuzi** yorishdi. Uning **chehrasidan** nur tomar edi. **Orazin** yopqach ko'zumdin sochilur har lahza yosh, O'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh. (A,Navoiy) Ochma **ruxsoringni**, jono, muncha zebolanmasun, To maningdek qasdig'a, yorab, ul o'q yoylanmasun. (Vola)

Jamoling vasfini qildim chamanda, Qizordi gul uyottin anjumanda. (Atoyi)

Uning **betida** qotib qolgan ter tomchilari edi. Olamonning sovuq **basharasi** ularni hayiqtirdi. Men avval bunday **nusxani** ko'rmagan edim.

Shimoliy Afg'onistondan misollar:

Yuzing chuchuk, iching achchiq emas, **Yuzing** achchiq, iching chuchuk der [10.3-b].

Oraz u xolingni birdam ko'rmasam, ay dilrabo, Uyladur men kim, ko'runmas ko'zuma oq u qaro.[11.1-b] Janonum hardam afzun bo'lsa, ay hush ahli tong yo'q kim, Ko'zumga jelva aylar ul pari **ruxsor** har soat. [11.16-b]

Rangsiz xoling **jamoling** xonida, ay simbar, Yo adas dur, yo yopushmish bir adas chog'lig' shaker.[11.32-b]

Solmoq o't barlos u tarxon **orazi** ne sud kim, Bizni kuygan **chehra** birla bir yasoqi kuydurur.[11.39-b] **So'zladim** birlik surudini butun, Ayriliqdan ko'zlarim geryon bolur.[4. 25-b]**Tabassum** aylasang jahon kular, Tabassuming quyosh ziyosimu?[12. 18-b]. Qishning qarongu tunlarida bulutlarni ortidan oy **jilmaydi**.[sheva]

Botur o'z sevgan qizidan, meni sevasanmi deb suradi, qizgina faqat ko'zlariga qarab **tirjaydi** u xalos.[sheva] Ikkala mamlakatning vakillarining qarshisida **nutq irod** etgan Pokiston jamhur raisi.[13.1-b] Abdulloh hamma ishlarni qilib yana ham erta bulayotgan ishlar haqida **gapirdi**. [sheva]



Tobistinda quyoshga qarshi **betimga** davo surtmasam **basharam** buzilib qoladi.[sheva] Yomon odamlarni yomonligi uchun umuman **turqiga** qaraging kelmaydi.[sheva] U kishi

yo'lda, hamisha qilolmagan ishlarini **ming'irlab** eslab yuradi.[sheva] Sulton aka yana qaytib kelib **to'ng'illadi** va joyga ultirdi.[sheva]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „Hozirgi o'zbek adabiy tili” O'zbekiston, „Fan” nashriyoti 1966-yil 128-bet
2. „Hozirgi o'zbek adabiy tili” X.Nuhiddinova, D. Xudoyberganova... O'qituvchi. 2006, 50-bet.
3. Yorqin SH. Yulduzlar izidan. – Kobul, talimi nashriyot 2014, 191-bet.
4. Vatandoron, 13 son, 2017, 32 bet).
5. Vatandoron, oyligi 31 son, 2018.
6. Butun Haydariy H. Tuganmas qayg'u.- Maymana: Turkiston, 2012.
7. <https://www.bbc.com/uzbek/news/story/2009/>.
8. <https://www.bbc.com/uzbek/news/>.
9. <http://salariyan.blogfa.com>.
10. <http://www.baborshah.com/>.
11. Yorqin H. So'kish ham pul bo'lar ekan. – Kobul, xuroson 2010.
12. Kuhkan M. O. Olam ahlin sog'inurmen. Kobul, Ozodlik.- 2016.
13. Javzujoniy SH. Yurak sirlari. – Kobul: Afg'on, 2009.
14. <https://www.bbc.com/uzbek/news/story/2007>.